



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT AKTIVLARINI
BOSHQARISH AGENTLIGI DIREKTORINING
BUYRUG‘I**

2025-yil 2-aprel

149-sonli

Toshkent shahri

**Xarid komissiyasi tarkibi va uning ichki idoraviy
Tartibini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-son Farmoniga asosan,

BUYURAMAN:

1. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-dekabrda 910-sonli qarori bilan tasdiqlangan Davlat organlari va tashkilotlarining ochiqlikni ta’minlash sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan majburiyatlarga rioya etilishini masofadan monitoring qilish tartibi to‘g‘risidagi nizamning 10-ilovasiga muvofiq xarid komissiyasi tarkibini tasdiqlash haqidagi buyruqning namunaviy shakli, 52-ilovasiga muvofiq davlat organlari va tashkilotlarida davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillarini belgilovchi xarid komissiyasining idoraviy ichki tartibini ishlab chiqishga oid namunaviy tavsiyalar tasdiqlanligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi markaziy apparatining o‘z ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat xaridini ta’minlash komissiyasi tarkibi 1- ilovaga muvofiq;

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi markaziy apparatining o‘z ehtiyojlari uchun davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillarini belgilovchi xarid komissiyasining idoraviy ichki Tartibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xarid komissiyasi tomonidan davlat xaridlarini O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni, Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi

Nizomda belgilangan tartib-taomillarga qat'iy rioya etilgan holda tashkil etilishi va o'tkazilishi ta'minlansin.

4. Davaktiv agentligi hududiy boshqarmalari va idoraviy mansub tuzilmalari mazkur buyruq talablaridan kelib chiqib, o'z xarid komissiyasi tarkibini tasdiqlash (qayta tasdiqlash) choralari ko'rsinlar.

5. Davaktiv agentligi markaziy apparatida davlat xaridlari tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazishga Ishlar boshqaruvchisi bo'limi mas'ul etib belgilansin.

6. Shartnoma imzolanganidan so'ng yetkazib berilayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni qabul qilib olishga tashabbuskor tarkibiy tuzilma shaxsan mas'ul hisoblanib, bunda, tashabbuskor tarkibiy tuzilma tovarlarni (ishlar, xizmatlar) qabul qilishni rad etgan taqdirda, bu to'g'risida zudlik bilan Ishlar boshqaruvchisi bo'limini (qabul qilishni rad etish dalolatnomasini ilova qilgan holda) xabardor etilishini ta'minlasin.

7. Xarid komissiyasi zimmasiga xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazishning qonuniyligini ta'minlash yuklatilsin.

8. Davaktiv agentligining 2022-yil 19-yanvardagi 10-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

9. Ijro intizomi nazorati va murojaatlar bilan ishlash bo'limi (Sultanova) ushbu buyruq nusxalarini Davaktiv agentligi markaziy apparatining tegishli tarkibiy bo'linmalari, hududiy boshqarmalari va idoraviy mansub tuzilmalariga yetkazilishini ta'minlasin.

10. Mazkur buyruq ijrosini ta'minlash Davaktiv agentligi direktorining o'rinbosari A. Miraliyev zimmasiga yuklansin.

Direktor



A. Ortikov

Davaktiv agentligi markaziy apparati o'z ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning xarid qilinishini ta'minlash bo'yicha xarid komissiyasi
TARKIBI

1. A. Miraliyev - Direktor o'rinbosari, komissiya raisi;
2. D. Isroilov - Ishlar boshqaruvchisi bo'limi boshlig'i, komissiya raisi o'rinbosari;
3. I. Pinyozov - Bosh buxgalter, komissiya a'zosi;
4. F. Sulaymanov - Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi boshlig'i, komissiya a'zosi;
5. O. Xurramov - Shartnomaviy-huquqiy munosabatlar va da'vo ishlarini yuritish bo'yicha yuridik boshqarma boshlig'i o'rinbosari, komissiya a'zosi;
6. O. Abdullayev - Ishlar boshqaruvchisi bo'limi bosh mutaxassisi, komissiya mas'ul kotibi.

Izoh: Komissiya a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki ushbu vazifani bajarish zimmasiga yuklatilgan shaxslar kiritiladi.

Davaktiv agentligi markaziy apparati o'z ehtiyoji uchun davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillarini belgilovchi xarid komissiyasining ichki idoraviy TARTIBI

I bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Tartib Davaktiv agentligi markaziy apparatida tashkil etiladigan eng yaxshi takliflarni tanlash (keyingi o'rinlarda - tanlash), tender bo'yicha xarid komissiyasining (keyingi o'rinlarda - Xarid komissiyasi) vazifalari, funksiyalari, huquqlari, javobgarligi va faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Xarid komissiyasi xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish chog'ida Davaktiv agentligi markaziy apparati tomonidan shakllantiriladigan, ushbu tartib-taomillarni o'tkazish tartibida shakllantirilishi talab etiladigan kollegial organdir.

Xarid komissiyasi Davaktiv agentligi markaziy apparati huzurida faoliyat ko'rsatadigan, uning tegishli buyrug'i bilan shakllantiriladigan va tarqatib yuboriladigan organdir.

Xarid komissiyasi ishining asosiy maqsadi ishtirokchilarning takliflarini buyurtmaga muvofiqlik darajasi bo'yicha xolis baholashdan hamda davlat xaridlari raqobatlashuv usullari orqali amalga oshirilganda g'olibni (zaxira g'olibini) tanlashdan iborat.

3. Xarid komissiyasi Davaktiv agentligi markaziy apparati huzurida doimiy faoliyat ko'rsatadi.

4. Xarid komissiyasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Maxkamasining qaror va farmoyishlari, boshqa qonun hujjatlari, Davaktiv agentligi direktorining buyruqlari, farmoyishlari, topshiriqlari hamda ushbu Tartibga amal qiladi.

II bob. Xarid komissiyasining asosiy vazifalari

5. Xarid komissiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- tanlash (tender) hujjatlarini kelishish;
- takliflar qabul qilinadigan muddatlarni belgilash;
- takliflarni ochish tartib-taomillarini belgilash;
- takliflarni baholash mezonlarini belgilash va unga asosan baholash;
- taklif kiritish tartibini, hajmini va uni ta'minlash shaklini belgilash;
- xarid qilish tartib-taomili ishtirokchilarining takliflarini ochish;
- malaka tanlovini o'tkazish agar tanlash (tender) hujjatlari shartlarida bu nazarda tutilgan bo'lsa;
- xarid qilish tartib-taomillarini qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirish;
- xarid qilish tartib-taomillarining raqobatlashuv turlari ijrochisini va zaxira ijrochisini belgilash yoki savdoni amalga oshmagan deb topish.
- Xarid komissiyasi xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rib chiqadi;

- xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisining ta'xis hujjatlari va shartnoma tuzish vakolatini tahlil qiladi;
- soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorlik mavjud emasligini tekshiradi;
- xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisiga nisbatan bankrotlik tartib-taomillari joriy etilmaganligini tekshiradi;
- xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi haqida Insofsiz ijrochilar yagona reestrda ma'lumot mavjud emasligini aniqlaydi;
- ochiq axborot manbalarida ehtimoli bo'lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida ma'lumotlar mavjud emasligini aniqlaydi;
- xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisining rasmiy veb-sayti (agar u mavjud bo'lgan taqdirda) dagi ma'lumotlarni tahlil qiladi;
- Davaktiv agentligining xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi bilan o'zaro hamkorligi tarixini o'rganadi;
- xarid ishtirokchilarida shartnomani bajarish uchun zarur texnik, moliyaviy, moddiy, kadrlarga oid va boshqa resurslar mavjudligini tahlil qiladi;
- xarid ishtirokchilarining o'zaro affillanganligining tekshiradi;
- manfaatlar to'qnashuvi mavjudligini o'rganadi;
- xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi tomonidan sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida ma'lumotlarni o'rganadi;
- korrupsiyaga yo'l qo'yimaslik borasidagi taqdim etilgan yoki veb-saytdagi hujjatlarni tekshiradi.
- Xarid komissiyasi qonun hujjatlari va ushbu Tartib talablaridan kelib chiqib boshqa vazifalarni ham bajarishi mumkin.

Xarid komissiyasi tomonidan mazkur yo'nalishlar bo'yicha xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganish davlat xaridlari tartib-taomillari ishtirokchilarini o'rganish jarayoni bo'yicha yo'riqnomaga asosan amalga oshiriladi.

III bob. Xarid komissiyasi ishini tashkil qilish

6. Xarid komissiyasi toq sonli a'zoldan iborat bo'ladi, uning a'zolari tarkibi va soni xarid qilish tartib-taomilining turiga bog'liq bo'ladi hamda olinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) xususiyatlari inobatga olingan holda o'zgartirilishi mumkin hamda davlat xaridlarining predmetidan kelib chiqqan holda o'z faoliyatini amalga oshirish uchun ekspertlarni, shuningdek, boshqa mutasaddi vazirliklar, idoralar mutaxassislarini jalb etishi mumkin.

Bunda:

- Davlat xaridini tanlash orqali amalga oshirish uchun davlat buyurtmachisining xodimlari orasidan kamida besh nafar a'zoldan iborat tarkibda xarid komissiyasi tuziladi;
- Davlat xaridini tender o'tkazish orqali amalga oshirish uchun kamida yetti nafar a'zoldan iborat tarkibda xarid komissiyasi tuziladi.

7. Xarid komissiyasining ishiga rais rahbarlik qiladi, majlislarni chaqiradi va olib boradi, ovozga qo'yishni va Xarid komissiyasi tomonidan qabul qilingan qarorlarni e'lon qiladi, shuningdek, Xarid komissiyasi majlislarining bayonnomalarini imzolaydi.

Xarid komissiyasi Raisi quyidagi vakolatlarga ega:

- Xarid komissiyasi majlislarini chaqirish va majlis kun tartibini belgilash;
- Xarid komissiyasi qabul qilgan qarorlar bajarilishini nazorat qilishni tashkil etish;
- Xarid komissiya a'zolari tomonidan o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalar

bajarilishini muvofiqlashtirish;

-Xarid komissiya a'zolari faoliyatini nazorat qilish;

-Xarid komissiyasi samarali ishlashi uchun zarur bo'ladigan boshqa choralarni ko'rish.

8. Xarid komissiyasining majlisini rais, u bo'lmagan taqdirda esa uning o'rinbosari olib boradi. Agar majlisda xarid komissiyasi a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lsa, xarid komissiyasi vakolatli hisoblanadi. Shuningdek, Xarid komissiyasi a'zolari ishdan bo'shaganda, uning o'rnini shu lavozimga yangi ishga olingan xodim to'ldiradi.

9. Xarid komissiyasining ishchi organi vazifasini Ishlar boshqaruvchisi bo'limi amalga oshiradi.

10. Xarid komissiyasining tezkor faoliyati uning ovoz berish huquqiga ega bo'lmagan mas'ul kotib tomonidan tashkil qilinadi.

11. Muayyan bir davlat xaridini amalga oshirish Xarid komissiyasi a'zolarida davlat xaridi ishtirokchisi bilan manfaatlar to'qnashuvi yoki Xarid komissiyasi a'zolarining affillanganlik xususiyatiga ega aloqalar mavjudligini ko'rsatuvchi holatlar aniqlangan taqdirda, bunday a'zoning ovozi mazkur masala bo'yicha ovoz berish natijalaridan chiqarib tashlanadi.

12. Mazkur Tartibning 11-bandida ko'rsatilgan shaxslarni Xarid komissiyasi tarkibiga kiritilishini oldini olish Xarid komissiyasi a'zolarini rad qilish va o'zini o'zi rad etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

13. Mazkur Tartibning 11-bandida nazarda tutilgan shaxslar Xarid komissiyasi tarkibiga kiritilganligi aniqlanganda Komissiya raisi bunday shaxsni muayyan xaridni o'tkazgunga qadar rad etish haqida qaror qabul qilishi shart. Komissiya a'zosini rad etish xaqidagi qaror yozma shaklda rasmiylashtiriladi va rad etishga asos bo'luvchi holatlar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi lozim.

14. Ushbu Tartibning 11-bandida nazarda tutilgan qaror qabul qilingan taqdirda, shuningdek, Xarid komissiyasi a'zosi o'zini o'zi rad etgan taqdirda yoki rad etish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda ushbu a'zo tegishli xaridlar bo'yicha Komissiya yig'ilishlarida qatnashishga haqli emas.

15. Xarid komissiyasi a'zolarida ishtirokchilar bilan affillanganlik xususiyatiga ega aloqalar mavjud bo'lgan taqdirda, xarid komissiyasining bunday a'zosi bu masala ko'tarilgan majlisda o'zini o'zi rad etishi va mazkur masala bo'yicha ovoz berishda ishtirok etmasligi kerak, bu haqda bayonnomada qayd etiladi.

16. Mazkur Tartibning 9-bandida nazarda tutilgan kvorum mavjud emasligi tufayli Xarid komissiyasi a'zosini vaqtincha almashtirish zarur bo'lganda Xarid komissiyasi a'zosini vaqtincha almashtirish haqidagi qaror Davaktiv agentligi direktorining buyrug'i bilan Xarid komissiyasi majlisi bayonnomasiga tegishli ma'lumotlar kiritilgan holda rasmiylashtiriladi.

IV bob. Xarid komissiyasi va a'zolarining huquq va majburiyatlari

17. Xarid komissiyasi quyidagi huquqlarga ega:

a) tanlash (tender) ishtirokchisidan uning malakaviy talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi dalillarni hujjat shaklida taqdim etilishini talab qilish;

b) o'z qarori bilan quyidagilarga asosan tanlash (tender) ishtirokchilarini tanlash (tender)da ishtirok etishni davom ettirishdan chetlatishi va ularning takliflarini ko'rib chiqishni davom ettirmasligi mumkin:

Insofsiz ijrochilar yagona reestrda tanlash (tender) ishtirokchilari haqidagi

ma'lumotlar aniqlanganda;

tanlash (tender) ishtirokchilarda soliq va boshqa majburiy to'lovlardan qarzi mavjudligi aniqlanganda;

agar tanlash (tender) ishtirokchisida qonunchilikni buzadigan tarzda adolatsiz raqobat ustunligi yoki manfaatlar to'qnashuvi bo'lganda;

agar tanlash (tender) ishtirokchisi tomonidan biron-bir harakatni sodir etishga, qaror qabul qilishga yoki tanlash (tender) savdolarini o'tkazish jarayonida buyurtmachining muayyan bir xarid qilish tartib-taomilini o'tkazishga ta'sir qilish maqsadida buyurtmachining hozirgi yoki avvalgi xodimiga yoki Xarid komissiyasining a'zosiga har qanday ko'rinishdagi mukofotni bevosita yoki bilvosita taklif qilganda;

tanlash (tender) ishtirokchisi takliflarida O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlarida belgilangan talablarning, savdo obyektining tanlash (tender) hujjatlarida qayd etilgan shartlarning buzilishi aniqlanganda, shuningdek, noto'g'ri axborot taqdim etilganda;

agar tanlash (tender) ishtirokchisi qayta tashkil etish (ajratish, qo'shish), tugatish yoki bankrotlik (mol-mulkini xatlash) jarayonida bo'lganda;

ta'sis hujjatlari, moliyaviy jihatdan qatnashish, xolding yoki boshqacha shaklda tanlash (tender) ishtirokchilari bir-biriga tashkiliy-huquqiy yoki moliyaviy jihatdan bog'liq bo'lganda;

d) xarid tashabbuskori, tashkilotchisi ixtisoslashtirilgan tashkilotdan ko'rib chiqilayotgan masalalar bo'yicha har qanday ma'lumot va hujjatlarni so'rab olish;

e) tegishli organlar va tashkilotlardan xarid ishtirokchilarining xarid haqidagi hujjatlarda belgilangan talablarga muvofiqligini aniqlash uchun zarur ma'lumotlarni belgilangan tartibda so'rab olish;

f) tender/tanlash ishtirokchilariga u yoki bu taklifni rad etish sabablarini tushuntirib berish, bunda, takliflarning narx va ishlarni bajarish muddati bilan birga mazmunini o'zgartiradigan tushuntirishlar berilishiga yo'l qo'yilmaydi.

g) Xarid komissiyasi eng yaxshi takliflarni tanlash, tender va ikki bosqichli davlat xaridlarini elektron shaklda o'tkazish chog'ida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda masofadan turib ovoz berish huquqiga ega.

18. Xarid komissiyasining a'zolari quyidagi huquqlarga ega:

- ko'rib chiqish uchun taqdim etilgan barcha hujjatlar va ma'lumotlar bilan tanishish;

- Xarid komissiyasi majlislarining kun tartibidagi masalalar bo'yicha so'zga chiqish;

- xarid jarayonida tuziladigan bayonnomalar mazmunining to'g'riligini tekshirish;

- ovoz berishda yoqlab ovoz berishi, qarshi ovoz berishi yoki unda ishtirok etishdan bosh tortishi mumkin.

- Xarid komissiyasining majlislarida o'zining yozma fikrini bayon etish.

19. Xarid komissiyasining a'zolari quyidagilarga majbur:

- uzrli holatlar (vaqtincha mehnatga layoqatsizlik, xizmat safari va boshqa sabablar) dan tashqari Xarid komissiyasining majlislarida shaxsan ishtirok etish;

- qonunchilikda belgilangan tartibga muvofiq xaridlarga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish tartib-taomillariga rioya qilish;

- xarid qilish tartib-taomili ishtirokchilarini tekshirish bo'yicha zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarish;

- mazkur Tartibning 13-bandida nazarda tutilgan biron-bir holatlar kelib chiqqanda, Xarid komissiyasi majlisining kun tartibiga kiritilgan masala bo'yicha ovoz berishda

qatnashmasligi, o‘zini o‘zi rad etishi va uning sabablari haqida komissiya raisiga xabar berishi;

- o‘z vakolati doirasida xolisona qarorlar qabul qilish.

20. Xarid komissiyasining raisi quyidagi huquqlarga ega:

- Xarid komissiyasi ishiga umumiy rahbarlik qilish va mazkur Tartib talablari bajarilishini ta‘minlash;

- Xarid komissiyasi majlisini vakolatli deb e‘lon qilish;

- Xarid komissiyasi majlisini ochish va uni olib orish, tanaffuslar e‘lon qilish;

- muhokama qilinadigan masalalarni ko‘rib chiqish tartibini belgilash;

- Xarid komissiyasining a‘zolari o‘rtasida davlat xaridlari ishtirokchisini tekshirish bo‘yicha vazifalarni taqsimlash;

- zarurat bo‘lganda Xarid komissiyasi majlisiga, Xarid komissiyasining ishiga ekspertlarni jalb qilish haqidagi masalani muhokamaga olib chiqish;

- davlat xaridlari ishtirokchisini tekshirish to‘g‘risidagi hisobotni o‘qib eshittirish;

- Xarid komissiyasining bayonnomasini tasdiqlash;

- mazkur Tartibning 13-bandida belgilangan hollarda Xarid komissiyasi a‘zolarini rad etilishi haqida qaror chiqarish;

- Xarid komissiyasining raisi ovoz berishda ishtirok etishdan bosh tortish huquqiga ega emas.

21. Xarid komissiyasi kotibi tashkiliy-texnik tavsifdagi funksiyalarni bajaradi, jumladan, Komissiya a‘zolari tomonidan imzolanadigan bayonnomalarni yuritadi. Ish, xizmatlar davlat xaridini amalga oshirishga tashabbus ko‘rsatgan tarkibiy bo‘linma mas‘ul xodimi tomonidan taqdim etilgan Xarid komissiyasining eng yaxshi takliflarni tanlash (tender) bo‘yicha baholash umumlashtirilgan natijalarini maxsus portalga joylaydi. Komissiya a‘zolariga Xarid komissiyasining navbatdagi majlisi haqida avvaldan xabar beradi.

Majlisda Xarid komissiyasi kotibi ishtirok eta olmaganda, uning funksiyalarini Xarid komissiyasi raisi tomonidan tayinlangan komissiya a‘zolaridan biri bajaradi.

22. Xarid komissiyasi tomonidan o‘z vakolati doirasida qabul qilinadigan qarorlar barcha ishtirokchilar uchun majburiydir.

V. Xarid komissiyasi tomonidan tanlash (tender) savdolarini o‘tkazish tartibi

23. Xarid komissiyasi o‘tkazilayotgan tanlash (tender) savdosi doirasida tanlash (tender)ga oid takliflarni tayyorlash muddati haqida qaror qabul qiladi va takliflarni qabul qilishning so‘nggi muddatini belgilaydi. Xarid komissiyasi tanlash (tender)ga oid takliflarni taqdim etish muddatini uzaytirish haqida qaror qabul qilishi mumkin. Bunda takliflarni tayyorlash muddati maxsus axborot portalida va boshqa ommaviy axborot vositalarida birinchi e‘lon berilgan vaqtdan boshlab o‘n kundan kam bo‘lmasligi kerak.

24. Xarid komissiyasi xarid qilish tartib-taomili ishtirokchisi tomonidan kiritiladigan tanlash (tender)ga oid takliflarni kiritish tartibini, hajmini va kafolat turini (zakalat yoki bank kafolati) belgilaydi.

25. Xarid komissiyasi ishtirokchilarga tanlash (tender)da qatnashishiga ruxsat berish haqidagi masalani hal qilish maqsadida ular tomonidan taqdim etilgan materiallar asosida ishtirokchilarning malakaviy tanlovini o‘tkazadi.

Bunda quyidagi ishtirokchilarning tanlash (tender)da qatnashishiga yo‘l qo‘yilmaydi va bu haqda tegishli qaror qabul qilinadi:

- qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik jarayonida bo‘lgan;

- Davaktiv agentligi bilan sud yoki arbitraj orqali nizolashayotgan;

- insofsiz ijrochilar yagona reestrda mavjud bo'lgan;
- soliq va boshqa majburiy to'lovlardan qarzi bo'lgan;
- tijorat va moliyaviy ko'rsatkichlari bo'yicha Xarid komissiyasining boshqa talablariga javob bermaydiganlar.

26. Xarid komissiyasi tanlash (tender)ga oid takliflarni ko'rib chiqish muddatini belgilaydi. Tanlash (tender) ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqish va baholash muddati takliflarni taqdim etish muddati tugagan vaqtdan boshlab o'n kundan oshishi mumkin emas.

27. Xarid komissiyasi kelib tushgan takliflarning xarid qilish hujjatlariga, texnik topshiriqqa to'g'ri kelishini batafsil o'rganish va xulosa tayyorlash maqsadida Xarid komissiyasi a'zolari, Davaktiv agentligi mutaxassislari orasidan ishchi guruh tuzishi mumkin, shuningdek, zarurat bo'lganda mutasaddi vazirlik va idoralarning mutaxassislarini jalb qilishi mumkin.

Komissiya tanlash (tender)ga oid takliflarni baholash uchun ekspert va maslahat beruvchi tashkilotlar vakillarini jalb qilishi mumkin.

28. Xarid komissiyasi eng yaxshi taklifni tanlash (tender) g'olibi va zaxiradagi g'olibni shartnomani imzolash muddatlari haqida qaror qabul qiladi.

29. Xarid komissiyasi tanlash (tender)ga oid takliflarni baholashni va o'zi tomonidan belgilangan mezonlar asosida g'oliblarni aniqlashni amalga oshiradi. Tanlash (tender)ga oid taqdim etilgan takliflarning qo'shimcha texnik, tashkiliy va tijorat ustunligi, shuningdek, tanlash (tender) ishtirokchisining nufuzi inobatga olinishi mumkin.

30. Xarid komissiyasining barcha qarorlari Xarid komissiyasi a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lib qolganida Xarid komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi bo'ladi.

31. Xarid komissiyasining barcha majlislari va qabul qilingan qarorlari bayonnomalar bilan rasmiylashtiriladi. Bayonnomalar Xarid komissiyasining hozir bo'lgan a'zolari tomonidan imzolanishi va Xarid komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlanishi lozim.

32. Xarid komissiyasining har bir a'zosi Xarid komissiyasining ish jarayonida qaror qabul qilishi shart, qaror qabul qilishda betaraf bo'lishga yo'l qo'yilmaydi. Xarid komissiyasi har bir a'zosi ovoz berishni davlat xaridlari bo'yicha maxsus portalda ochilgan o'zining shaxsiy kabinetida elektron tarzda amalga oshiradi. Xarid komissiyasining a'zolari tomonidan o'z vakolatlarini boshqa shaxslarga berishlariga yo'l qo'yilmaydi.

33. Xarid komissiyasi majlislarida tanaffuslarga yo'l qo'yiladi. Xarid komissiyasi majlisini bir kun davomida ko'chirish tanaffus bo'lib hisoblanadi.

34. Yengib bo'lmas kuch holatlaridan tashqari Xarid komissiyasi majlisining muddatini boshqa kunga o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

35. Xarid komissiyasi quyidagi hollarda tanlash (tender)ni o'tmagan deb topadi:

- tanlash (tender)da bitta ishtirokchi ishtirok etgan yoki bironta ishtirokchi ishtirok etmagan taqdirda;

- takliflarni taqdim etish muddati tugagandan so'ng tanlash (tender) ishtirokchilaridan ikkitadan kam takliflar kelib tushgan bo'lsa;

- kelib tushgan takliflar savdo obyektining tanlash (tender) hujjatlari shartlariga javob bermasa;

- tanlash (tender) ishtirokchilari tomonidan taklif etilgan narxlar tanlash savdolarining eng yuqori bahosidan oshib ketsa.

VI. Xarid komissiyasining javobgarligi

36. Xarid komissiyasi ijrochini aniqlash tartib-taomillari davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligi, o'zi tomonidan qabul qilinadigan quyidagi qarorlar, harakatlarga:

- xarid komissiyasi tarkibida kvorum bo'lmaganidan turib qaror qabul qilganligi;
- tanlash (tender) ishtirokchilari intellektual mulkining daxlsizligi yoki tijorat siriga bo'lgan huquqi buzilganligi;
- tanlash (tender) ishtirokchilarini tanlash (tender)ni o'tkazish tartib-taomillarida qatnashishdan asossiz chetlatilganligi;
- yopiq ahamiyatga ega bo'lgan tartib-taomilga oid masalalar natijalarini ochiq muhokama qilganlik va ko'rib chiqqanlik, maxfiy axborotni oshkor qilganlik, tanlash (tender) ishtirokchilari yoki jalb etilgan mutaxassislar bilan til biriktirganlik, shuningdek, boshqa g'ayriqonuniy harakatlarni sodir etganlik;
- Xarid komissiyasining ochiq majlisida tanlash (tender) g'olibini aniqlaganlik, tanlash (tender) g'olibini e'lon qilish tartib-taomilini buzganlik, hozir bo'lmagan tanlash (tender) ishtirokchilariga o'z vaqtida xabar bermaganlik uchun javobgar hisoblanadi.

37. Xarid komissiyasi tanlash (tender) g'olibini ishtirokchilar orasidan aniqlash tartib-taomillari davlat xaridlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi, o'zi qabul qilayotgan qarorlarning asosliligi va beg'arazligi uchun javobgar bo'ladi.

38. Xarid komissiyasi davlat xaridlarining boshqa subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

VII. Yakuniy qoidalar

39. Qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning buzilishida aybdor bo'lgan Xarid komissiyasi a'zolari O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladi.

40. Ushbu Tartibda ko'zda tutilmagan barcha holatlar Davlat xaridi bo'yicha amaldagi qonun va me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq tartibga solinadi.